International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

MIL.AVV IV – MILODIY IV ASRLARGA OID SHAHARLARNI O‘RGANISHDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN XALQARO ILMIY ALOQALARI



Karimov Zafar Bekturdiyevich
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: temurmalik154@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro ilmiy aloqlari va bu hamkorlikning tariximizni yoritishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Aqshaxanqal’a, Toshxirmon, Ko‘ktepa, Afrosiyob, Uzunqir, Jondavlat, Qirqqiz-3, Bobolangar, Tillabuloq, Bandixonsoytepa.

Kirish. Mustaqillik yillarida o‘lkamiz viloyatlari hududida arxeologiya yodgorliklarini o‘rganish borasida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik ekspeditsiyalar tashkil etilishi mazkur tarixiy davrning muhim yangiliklaridan biri bo‘ldi. O‘zbekiston hududidagi arxeologik yodgorliklarida keng qamrovli qazishma ishlari natijasida olingan noyob manbalar asosida ajdodlarimizni jamiyatni rivojlantirish sohasida olib borgan zafarlarini O‘zbekiston boy tarixini jahon madaniyati sahifasida joylashtirgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida Xorazm ekspeditsiyasi o‘z faoliyatini to‘xtatganligi mazkur davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘ldi. Mustaqillikdan keyin O‘zbekistonda ko‘plab arxeologik yodgorliklarining kashf etilishi, qazishma ishlarining olib borilishi natijasida yer ostidagi tarixiy obidalar va ulardagi moddiy ashyolar olinmoqda va muntazam ilmiy jihatdan tadqiqi qilinmoqda. Bu esa o‘z navbatida haqqoniy tariximizni tiklashda, yurtimizga qiziquvchi xorijlik va mahalliy sayyohlarning soni ortishiga sabab bo‘lyapti. O‘zbekiston ko‘plab davlatlar bilan xalqaro ekspeditsiya ishlarini olib bormoqda. Bunday ekspeditsiyalar ko‘plab tadqiqotchi olimlarni bir makonda birlashtirish ishiga xissa qo‘shmoqda. Eng qadimgi davrdan ajdodlarimiz tomonidan tomonidan yaratilgan moddiy-ma’naviy merosni asrab-avaylash, rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishganidan keyin ko‘p salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan xaqqoniy tarixni to‘g‘ri yoritish dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. “Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur” [1].

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy markazlarining boshqa xorijiy davlatlar bilan hamkorligida aholi turar-joylarda arxeologik izlanishlari natijasida olingan noyob manbalarni nashrlarda qayd qilganlar. Masalan, Avstraliya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Fransiya, Italiya, Polsha, Chexoslavakiya, AQSh, Gollandiya, Rossiya davlatlari hamkorligida arxeologik guruhlar arxeologik yodgorliklarida qazishma ishlari olib borilgan.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Qoraqalpog‘iston respublikasi qadimshunoslari Avstraliya Sidney universiteti olimlari hamkorligida Aqshaxanqal’a va Toshxirmonda, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi arxeologiya instituti Xiva mintaqaviy bo‘limi arxeologik guruhi Rossiya davlat Sharq muzeyi hamkorligida Xumbuztepada, Xorazm Ma’mun akademiyasi va Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti talabalari bilan hamkorlikda Xazoraspda olib borilgan qazishma ishlari natijasida o‘troq aholi tomonidan bino qilingan turar-joylarda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlardagi tarixini ilmiy adabiyotlarda yoritdilar [5]. Toshxirmontepadan topilgan olov saqlangan ibodatxonasi qadimgi Xorazmning diniy markazi bo‘lganligini isbotlaydi [2]. Nafaqat O‘zbekiston Respublikasida, balki O‘rta Osiyoda qadimiy shaharlar hisoblangan Buxoro, Xiva, Qarshi, Termiz, Kesh, Samarqand va Toshkent shaharlariga oid xalqaro miqyosda ilmiy konferensiyalar o‘tkazilishi (1970 yilda Samarqandning 2500 yilligi xalqaro miqyosda nishonlangan edi), mustaqillik yillarida Samarqand shahrining 2750 yilligi, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, Qarshi, Shahrisabrz, Termiz, Toshkent shaharlarining yubileylarining nishonlanishi muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbek - Fransiya ilmiy markazlari hamkorligida arxeologiya guruhi Afrosiyob va Ko‘ktepalarda arxeologik izlanishlarni olib borib, temir davri jamiyati rivojlanishi asosida davom etgan antik davr tarixi tadqiqotchilar nashrlarida o‘z ma’nosini topgan. Ko‘ktepa qurilishi I, II, III, IV xronologik davrda aks etgan bo‘lib, to‘rtinchi sanasi mil. avv III asrda madaniy-xo‘jalik hayot yakun topgan [6]. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Zarafshon miqdor jihatidan birinchi o‘rinda turgan Afrosiyobda qazishma ishlari natijasida 15 m chuqurlik madaniy qatlamidan olingan ashyolar hamda guvalaksimon g‘ishtdan tiklangan qal’a devor qoldig‘i mil. avv VIII asrga mansub bo‘lgan (200 ga). Mana shu madaniy qatlam asosida mil. avv IV asrda rivojlanish davom etgan, mudofaa devorga kvadrat g‘ishtdan (40x40x10 sm) devor qo‘yilgan, u o‘z navbatida to‘g‘riburchak burj, devor va burjlar nayza o‘qli shinaklarga ega [12]. Janubiy So‘g‘dning yirik shaharlaridan biri Yerqo‘rg‘on yodgorligi hisoblanadi. Yodgorlik asosi mil. avv VIII asrga oid bo‘lib, keyingi tarixiy davrda madaniy-hayot davom etganligi 4 ta qurilish davriga ajratilgan. Ya’ni mil. avv IX – VIII asrlarda mudofaa tizimli qishloq tipi, mil. avv VI asrda ichki mudofaa devor o‘rab olgan-hajmi 35 ga, mil. avv III-II asrlarda mudofaa devor chayla qurilgan, tashqi devor qurilishi natijasida uning maydoni 150 ga bo‘lgan. Yodgorlikda madaniy hayot milodiy VI asrgacha davom etganligi qayd qilingan. R.X.Suleymanov monografiyasida o‘z mazmunini topgan [9]. Shu bilan birga tadqiqotchilar nashrlarida Uzunqir aholi markazi, uning I, II, III davr qurilishi, III qurilishi mil. avv V-IV asrlarga oidligi to‘g‘risida ma’lumotlar o‘rin olgan [13].

Surxondaryo viloyatida antik davr yodgorliklarida qazishma ishlari olib borilib, uning natijalari tadqiqotchilar nashrlarida qayd etilgan. Masalan, K.Sabirov Surxon vohasida Xaitabod, Jondavlat yodgorliklari asosi ilk temir davriga oid bo‘lib, uning rivojlanish tarixi antik va ilk o‘rta asrlarda davom etgan [7]. Sh.Shaydullayev tadqiqotida qayd qilingan Jondavlat, Xaitobod, Bandixonsoytepa, aholi markazlari antik davrida madaniy-xo‘jalik markazi sifatida faoliyatlari davom etgan [10].

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

Viloyat hududida Germaniya, Fransiya, Chexiya, ilmiy markazlari olimlari arxeologiya yodgorliklarini arxeologik jihatidan o‘rganish ishlari olib borilgan. Masalan, O‘z FA San’atshunoslik instituti va Sharq muzeyi (Moskva) ekspeditsiyasi Ko‘xitang hududda Poshxurd hududida Tillabuloq yodgorligida qazishma ishlari natijalari nashrlarda aks etgan [3]. Shu bilan birga, Zarabog‘ qishlog‘idagi Boblangarda qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar Tillabuloq manzili ashyolarni takrorlaydi [4].

O‘zbekiston-Rossiya arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari Sherobod tumanida G‘ozqala yodgorligida, Ko‘hitang hududida Arabuloq, Qirqqiz-3, Bobolangar, Yultegi (2 ga), boshqalari 0,3-0,5 ga, turar-joylarida, O‘zbekiston-Chexiya arxeologlari Zarabog‘, Qorabog‘ va Maydon qishloqlarida joylashgan Burguttepa, Qayrittepa, Tazaqo‘ton yodgorliklarida olingan natijalarini nashrlarda qayd qilingan [11]. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Boysun tumani hududida 11 ta antik davrga oid yodgorliklar ro‘yxatga olingan [5].

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida Vatanimiz hududida qadimgi davrlardan boshlab rivojlangan shaharlar, madaniy-xo‘jalik markazlari, qishloqlar tarixini arxeologik qazishmalar natijasida o‘rganish va tarixiy obyektlarni qayta tiklash borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston hududida tosh davrlaridan boshlab insoniyat hayot kechira boshladi va ilk shahar va davlatlar ham mamlakatimizda tashkil topdi.

Keyingi davrlarda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar natijasida arxeologik tadiqotlarni tubdan takomillashtirildi, yirik arxeologik obidalarda keng ko‘lamli qazishma ishlarini o‘tkazildi va qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni xalqimizga va jahon hamjamiyatiga targ‘ib qilindi

O‘zbekiston va xorijiy olimlarning hamorligi natijasida arxeologiya sohasi yangi rivojlana boshlandi. Shundan so‘ng, arxeologiya sohasidagi barcha olimlar, malakali mutaxassislar fikrlari bir joyga jamlana boshlandi. Arxeologiya sohasiga oid barcha ma`lumotlar tizimlashtirildi va xalqaro ilmiy hamkorlik mustahkam yo`lga qo`yildi. Natijada O‘zbekistonda tarixini yoritish yanada rivojlanish davriga qadam qo‘ydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik//Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, 2023, “O‘zbekiston”. 5-jild. 277 b.
2. Беттс А.В.Г, Ягодин В.Н. Раскопки Ташкырман-тепе. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар тўплами (2000-йил). Самарқанд, 2001. Б 47-55.
3. Каниут К, Тойфер М, Илясов ДЖ.Я, Шайдуллаев Ш.Б. Раскопки поселения Тилля-Булак в 2007//Археологические исследования в Узбекистане 2006-2007 гг-Ташкент, 2009-Вып-6. – С 77-9.
4. Kaniuth K. A new late Bronze Ade Site in Southern Uzbekistan//In South Asian Archeology.2007-Oxford.Archaeopress,2013-p 151-155.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

5. Ходжаниязов Г.К, Ягодин В.Н. Хелмс С.У, Макларен Б.К. Раскопки на Акшахан калъе//Археологические исследования в Узбекистане в 2000 г-Самарканд, 2001. – С 175-180.
6. Rapin C, M.S Isamiddinov, M.Khasanov La tomde dune princesse nomade a Koktepe prusde Samarkand.Akadymredes Ingeriptions of belles Lettres.Comptes rendues de syances. Paris. 2001.p.35-98.
7. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари-Тошкент,: Фан 2009. 135-Б.
8. Сверчков Л.М. Археологические памятники Бойсунского района//История и традиционная культура Бойсуна//Труды Байсунской научной экспедиции-Ташкент, 2005, вып-2-С.10-51.
9. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшеб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э- VIII в.н.э-Ташкент-Самарқанд, Фан.2000-342 С.
10. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). Тарих фан докт.дисс.автореф-Самарқанд.УзР ФАН, Археология Института.2009-42 С.
11. Шайдуллаев Ш, Станчо Л, Хамидов О. Пашхурд-Зарабоғ ботиғида аниқланган Кучук-1 даврига оид янги ёдгорликлар//Қадимий Жиззах воҳаси-Марказий Осиё цивилизацияси тизимида-Тошкент, 2019-Б.110-114.
12. Ширинов Г.Ш, Шамсиддинов М.Х. Археология древнего Самарканда-Ташкент, 2007-С.70-107.
13. Эгамбердиева Н. Амударё хавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти (мил.авв.VIII – мил.IV асрлар-Тошкент.: Инновация Зиё-2020-Б.163.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek